

BADIIY DETAL RUHIY TASVIR IFODASI SIFATIDA

Asomiddinova Gulbaro Alijonovna

Fargʻona davlat universiteti chet tillari kafedrası oʻqituvchisi

Annotatsiya

Tadqiqotchi ushbu maqolasida badiiy asar lisoniy dunyosining eng kichik birligi – badiiy detal haqida fikr yuritadi. Detalning asardagi asosiy vazifasi kichik tafsilot orqali butun bir tasvirni, qahramonning portreti, xarakter qirralarini aniq, toʻla koʻrsatib berishining chuqur tahlil etadi. Shuningdek, qahramonlarga beriladigan psixologik tahlilni detallar yordamida ifoda etish orqali muallif uslubi belgilanishi va ijodkordan hamisha izlanishda boʻlishni, bilimlarini boyitib borishni talab etilishini isbotlab beradi.

Kalit soʻzlar: Detal, tafsilot, psixologik tahlil, qahramon portreti, xarakter qirralari, badiiy asar, novella, yozuvchi mahorati.

Badiiy asar tilining hamisha yangi ifoda usullari bilan boyitib, rivojlantirib borish lozim. Soʻz va fikrning tub mohiyatini ochib beradigan bunday usullar insoniy tuygʻu va intilishlarni qisqa va loʻnda tasvir orqali bayon etilishiga yordam berishi zarur. Shu maʼnoda, badiiy detal yozuvchi gʻoyasini ixcham shaklda kitobxonga yetkazishda oʻziga xos ifoda usuli sanaladi.

Badiiy asar lisoniy dunyosining eng kichik birligi – badiiy detal, deb nomlanadi. “Detal (fr.detail) – biron narsani kichik qismi, tafsilot, mayda savdo, tanga degan maʼnolarni anglatadi”[1]. Badiiy asarni detallarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Boshqacha qilib aytganda, detal badiiy asarga bezak boʻlibgina qolmay, u mantiqiy maʼno ham kasb etadi. Personajning barcha xususiyatlarini yoritib berish yozuvchiga qiyinchilik tugʻdirganida, detallar yordamida muallif kontekstda badiiy butunlikka erishadi va asar syujetini boyitadi. Yozuvchilar oʻz asarlarida detaldan oʻz gʻoyalarini qisqa shaklda bayon etishda foydalanadilar.

Detalning asardagi asosiy vazifasi kichik tafsilot orqali butun bir tasvirni, qahramonning portreti, xarakter qirralarini aniq, toʻla koʻrsatib berishdir. Shuningdek, detal yozuvchining ayta olmagan yoki oxirigicha bayon eta olmagan fikrlarini kitobxonga yakunlab qoʻyish imkonini beradi. Muallif u yoki bu detalni qoʻllaganda, avvalambor, kitobxonning tajribasi, xayolot dunyosiga ishonadi. Kitobxon mutolaa davomida asarda detalning yetishmagan elementlarini xayolan toʻldirib ketadi. Bunday jarayon asar “konkretizatsiya”si deb ataladi.

Yozuvchining badiiy mahorati o‘z asarlari haqqoniyligini ta’min etishda hayotiy voqealarni to‘g‘ri tanlab, unda detallardan o‘rinli foydalanishda namoyon bo‘ladi. Birgina detal orqali obrazning ruhiyatida sodir bo‘layotgan kechinmalar, taassurotlar haqida tushuncha hosil bo‘ladi. Qahramonlarga beriladigan psixologik tahlilni detallar yordamida ifoda etish orqali muallif uslubi belgilanadi va ijodkordan hamisha izlanishda bo‘lishni, bilimlarini boyitib borishni talab etadi. Detalning o‘ziga xosligi shundaki, “asarda bir paydo bo‘lib, lekin butun umr xotirada saqlanib qolinishidir” [2].

Darhaqiqat, biror asarda yozuvchi tomonidan qo‘llangan detal uni o‘qigan kitobxon xotirasida bir umr saqlanib qoladi. Shekspirning “Otello” tragediyasidagi ro‘molcha, A.Qahorning “Anor” hikoyasidagi anor, O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridagi junpaypoq, Ulug‘bek Hamdamning “Tosh” hikoyasida tosh, Stefan Sveygning “Noma‘lum ayol maktubi” novellasida oq gullar shular jumlasidandir.

“Yozuvchi qalbidan o‘tgan detal kitobxonga bir vaqtning o‘zida ham oddiy, ham kutilmagan, ham ancha tanish va endigina ko‘rinib turgandek kabi, his-tuyg‘ularni ulashadi” [3]. Har bir detalni sinchiklab tanlash yozuvchiga katta ma’suliyat yuklaydi. Asarda detallar ishtiroki yozuvchi mahoratini belgilab beradi. Buning uchun muallif o‘zi ham inson ruhiyatini teran anglashi, keng dunyoqarash egasi bo‘lishi kerak.

“Detail, odatda, lo‘nda, aniq, yorqin va obrazli ifoda bo‘lib, asosan, tasvir obyektini sintezlashtirib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Badiiy asar kompozitsiyasida detal o‘z o‘rnini topgandagina badiiy-estetik vazifa bajaradi. U yozuvchini ko‘p so‘zlikdan, ya’ni “adabiy laqmalik”dan saqlaydi. Sermazmunlilikka erishish – badiiy detalning xarakterli xususiyatidir” [4].

Albatta, bu yerda yozuvchining mahorati, detallardan o‘rinli foydalana olishi katta ahamiyatga ega. Badiiy detal qahramon obrazini yaratishda asosiy vosita sanaladi. Badiiy detal tabiat tasviri, predmet yoki xarakterni kitobxonga o‘ziga xos tarzda tasavvur etishga imkon beradi va tashqi qiyofa belgilari, libos, muhit, his-tuyg‘ular va xatti-harakatlar kichik hajmli matn yordamida tasvirlanadi. O‘zbek adabiyotida detaldan A.Qodiriy, A.Qahhor, Oybek, rus adabiyotida A.Chexov, N.Gogol, L.Tolstoy mohirona foydalanganlar. Ayniqsa, “detailning ustasi” A.Chexov o‘zining kichik hikoyalarida detallarga katta ahamiyat bergan va u qo‘llagan birgina detal butun bir matn o‘rnini bosa olgan.

XX asr adabiyotshunosligi rivojlanib borish jarayonida badiiy detal adabiyotshunoslarning diqqatini o‘ziga tortdi. Shunga qaramay, hozirgacha detal ta’rifida filologiya ilmida aniq bir to‘xtamga kelingani yo‘q. Bu masalaning o‘rganilishi davomida erishilgan barcha natijalar adabiyot nazariyasi fani darsliklari, lug‘atlari, ensiklopediyalarida taqdim etilgan. Rossiyada badiiy detal masalasini

Ye.Dobin [5] o‘z izlanishlarida yoritgan bo‘lib, detalning badiiy asar syujetidagi o‘rni masalasini atroflicha tahlil etgan. Shuningdek, badiiy detal psixologizmni ifodalash usuli sifatida A.Yesin va I.Straxovlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.[6] Viktor Shklovskiy [7] esa detallarni badiiy matnda yangilik va ajabtovur buyum sifatida ta’sir etish kuchiga ega ekanligiga e’tiborini qaratgan.

L.V.Chernes detalning asarda buyumlar tasviridagi eng kichik birlik sifatida ta’riflaydi [8]. O‘zbek adabiyotshunosligida S.Umirov, T.Boboyev, U.Normatov, A.Qayumov, D.Gafurova [9] kabi olimlar badiiy detal muammosi yoritilishiga salmoqli hissa qo‘shganlar.

“Hayotni tipiklashtirishda, uni badiiy ifodalashda, qahramon xarakteri qirralarini ochishda, asar g‘oyasini ifodalashda, uning emotsional ta’sir kuchini oshirishda badiiy detallar katta o‘rin tutadi. Avvalo, shuni aytish kerakki, detal deganda muayyan asar to‘qimasidagi predmet, belgi, chizgi kabilarni tushunamiz”. [10]

Darhaqiqat, badiiy detal xarakterning mavjud va ikkinchi darajada turuvchi qirralarini ochib beruvchi usul hamdir. Detal vositasida ijodkor qahramonning xulqi va xarakter qirralarini ifodalabgina qolmay, unga xos shaxsiy sifatlarni ham ochib beradi. T.Boboyevning fikriga ko‘ra, “asardagi har qanday predmet, belgi, chizgilar ham badiiy detal bo‘la olmaydi”. [11] Uning fikriga professor U.Normatov ham qo‘shiladi va “badiiy detal mayda qismchalardan biri, biroq asardagi har qanday qismchalar detal bo‘lavermaydi. Detalni tafsilotdan farq qilish kerak. Tafsilotdan farqli o‘laroq, detal qisqa va ixcham bo‘ladi. U tasvir obyektini sintezlashtirib ko‘rsatish, u haqda kitobxonda tez va aniq tasavvur hosil qilish xususiyatiga ega”. [12]

Darhaqiqat, detalning tafsilotdan farqi shundaki, tafsilot bilan birgalikda holatga aniqlik kirituvchi so‘zlar yonma-yon keladi. Detal esa asarda mustaqil, hech qanday izohlarsiz mavjud bo‘ladi. Birgina detal butun matn o‘rnini bosishi mumkin, chunki uning yordamida yozuvchi ifoda eta olmagan fikrlarini yuzaga chiqarishga harakat qiladi. Tafakkur etishni esa muallif kitobxon hukmiga havola etadi. Kitobxon o‘z dunyoqarashi, ma’lumoti doirasida detalni tahlil eta boshlaydi. Detalni har kim o‘z bilim, tafakkuri darajasida qabul qiladi va tushunadi. Bu borada badiiy detalga taniqli olim S.Umirov shunday ta’rif beradi: “Detal odatda yirik planda beriladi, u o‘quvchini bir lahza to‘xtatib, uning diqqat-e’tiborini muhim bir narsaga jalb etadi, tasvir obyektini bo‘rttirib, qabartirib ko‘satib, tez va aniq tasavvur qilish imkonini beradi”. [13]

Bizningcha ham shunday. Muallif nutq va portret detallaridan qahramon ruhiy holatini, libos, nutqi va interyer detallaridan ijtimoiy mavqeini, xarakterini fosh etishda muhim vosita sifatida foydalanadi.

Masalan, Stefan Sveygning “Noma’lum ayol maktubi” novellasida oq atirgul, Ulug’bek Hamdamning “Isyon va itoat” romanida “velosiped” kabi detallar predmet detallari bo’lib, qahramonlar hayotida ular juda muhim ahamiyatga ega.

Muallif maqsadidan kelib chiqib, detallar matnda bir marta qo’llansa statik, bir necha marotaba qo’llansa dinamik detal deyiladi. Detallar ro’zg’or, tabiat manzarasi, portret, jihozni tasvirlash bilan bir qatorda, imo-ishora, xatti-harakat, nutqni ham ifoda eta oladi. Rossiyalik adabiyotshunos olimlar V.B.Shklovskiy, B.E.Galanov, Ye.S.Dobin, A.B.Yesinlar badiiy detalni yakka bir buyum yoki butun buyumning bir qismi orqali obraz tasviriga ko’maklashuvchi, kitobxon ongiga ta’sir etuvchi tafsilot sifatida ta’riflaydilar va ularni, o’z navbatida, *portret, ro’zg’or, tabiat va nutq detallariga* ajratib chiqadilar. Sanab o’tilgan detallar yana kichik guruhchalarga bo’linib ketadi.

Portret detallar– badan detali (somatik detal), mimika detali, imo-ishora detali, harakat detali kabi. Shuningdek, portret detallar tasvirlovchi va psixologik (taassurot uyg’otuvchi) detallar bo’lishi mumkin. Tasvirlovchi portret detallar personajning tashqi ko’rinishini ifodalashga asoslansa, psixologik portret detallari qahramon ichki dunyosi, his-tuyg’ulari, xarakteri tasviriga asoslanadi. U.Hamdam asarlarida portret tasviriga kam murojaat etilgani, yoki umuman murojaat etilmagani ma’lum bo’ldi. Bunga sabab deb biz Ulug’bek Hamdamning zamonaviy yozuvchi ekanligi va, uningcha, qahramon xatti-harakatlari ifodasi tashqi qiyofa tasviridan muhim ekanligida, degan xulosaga keldik.

Yozuvchi “Ota” romanidagi bosh qahramonlar portretiga emas, balki ikkinchi darajada turuvchi personajlar portretiga chizgi berib o’tadi. Masalan, azayimxon domla, yoshgina nemis askari, frontdagi do’sti Nikita kabi personajlarning tashqi ko’rinishi haqida kitobxonda tasavvur hosil bo’ladi. Lekin Po’latning, Yog’duning tashqi ko’rinishi haqida hech qanday ma’lumot berilmaydi. Misol tariqasida, Nikita portretiga berilgan ta’rifni keltiramiz: “Nikita baland bo’yli, oq-sariqdan kelgan, doim quyoshdek kulib turuvchi yumaloq yuzli, g’oyat istarali, samimiy yigit edi. U Po’latdan bir yosh katta edi”.[14]Keltirilgan matndan ko’rinib turibdiki, yozuvchi portretga qisqacha ta’rif berib o’tmoqda, undan ortiq hech qanday gap yo’q. S.Sveyg novellalarida ham qisqa, ham to’liq va asosan qahramon va personajlarning psixologik portretiga urg’u berilganligini ko’rish mumkin: “Ochiq yuz bilan uyalinqirab turgan bu kekxa ayolning nigohida shafqat bag’ishlovchi go’zallik barq urib turardi. O’tmishdagi oshkora tuyg’ular shu’lasimi, yo sarosimalikmi, oq sochlarining to ildizigacha, butun yuz-ko’zlariga qizil yugurdi, xuddi yosh qizlarday xotiralaridan hayajonlanib, kechirmishlarini tan olganidan uyaliq turardi”.[15]

Ro’zg’or yoki interyer detallari badiiy asarda muhim o’rin tutadi. Ularga asarda ko’plab vazifa yuklatiladi. Ro’zg’or detallaridan foydalanmaslik qahramonlar xarakteri va xatti-harakatlarining

noto'g'ri talqin etilishiga, matnning tushunarsiz bo'lib qolishiga olib keladi. Ro'zg'or detallari orqali davr, makon, qahramon millati, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va moliyaviy ahvoli haqida xulosa qilish mumkin. Buyumlar insonning ruhiy holatini, his-tuyg'ularini ham ifoda eta oladi. Interyer detallariga misol qilib, "Ota" romanidagi "Ma'bud" xonasining tasvirini keltirish mumkin. Xonasida televizor borligi uning anchagina o'ziga to'q odam ekanligini ko'rsatadi, chunki urushdan so'nggi yillarda har kimning ham uyida televizor bo'lmagan. Yana shu romandan "Oychechak opa ayyonga kirib, qo'lidagi tugunni xontaxta ustiga qo'ydi-da, yoyilib, besaranjom bo'lib yotgan to'shaklarni ko'tarib, boshqatdan o'rin soldi. So'ng "o'tir, bolam, o'tir!" deya o'zi ham oyoqlarini so'ridan pastga osiltirib o'tirdi".[16]

Keltirilgan parchada Po'latning xonadonida yoyilib, besaranjom bo'lib yotgan to'shaklar detali uning ruhiy holatini oshkor etuvchi detallardir. Chunki Yo'g'du uyini tark etgach, Po'lat chuqur iztirobga tushib, ko'ngliga hech narsa sig'may qoladi. Uyining Yog'dusiz, besaranjom holati Po'lat ruhiyatiga ham ishora qiladi. Aynan shu o'rinda biz interyer detallarining qahramon ruhiy holatini aks ettirishiga guvoh bo'lamiz.

Peyzaj yoki tabiat detallari asarda ko'plab vazifalarni o'taydi. Ular orqali hodisalar ro'y berayotgan joy haqida tasavvur shakllanadi. Tabiat detallari o'ziga xos ruhiy muhit yaratib, qahramonlar ichki kechinmalarini yaxshiroq tushinishga, milliy xususiyatlarni ifoda etishga yordam beradi. Shuningdek, tabiat detallari asarning yashirin g'oyasini ham ko'rsatib bera oladi.

Yozuvchi U.Hamdamning "So'z" nomli hikoyasida tabiatning erkak kayfiyatiga monand holda o'zgarishi tasvirlanadi: "Qiziq, tushgacha havo biram ochiq, biram yoqimli ediki, qarab kishining bahri dili qulf urardi... Endi ko'kda to'da-to'da bulutlar paydo bo'ldi, osmon yuzi qorayib, yerda uning ko'lankasi kezina boshladi. Ko'p o'tmay, falak toqi qarsillab bir yorishdi-yu, shig'alab yomg'ir yog'di. Er-xotinning yonginasidagi derazaning ochiq bir qanoti kesakisiga kelib urilgan edi, ikkalasi ham bir cho'chib tushishdi... Ular dala hovlidan tezgina qaytishdi". [17] Erkak ayoli bilan yaxshi kayfiyatda dala hovlisiga borishadi, lekin ayolining telefon orqali dugonasiga aytgan birgina "bema'ni kun" jumlasini tufayli erining ko'ngli yaralanadi. To'da-to'da bulutlarni erkakning dilini qoplagan alam bo'lsa, shig'alab quygan yomg'irni esa uning qalbining qon yig'lashi sifatida tushunish mumkin.

Xullas, badiiy detal muhitni yanada jonliroq tasvirlab, asarda bir nechta vazifalarni bajaradi. Stefan Sveyg va Ulug'bek Hamdam o'z asarlarida qahramonning psixologik portretini yaratishda detallardan mahorat bilan foydalanganlar. Bu detallar o'quvchiga obrazli tasavvurlar berish bilan birga, matn badiiyligini ham ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Словарь иностранных слов. – М.: Русский язык, 1988. – С.160.
2. Курова К.С. Деталь и замысел. Сов. Казахстан. – 1958. – №3. – С.113.
3. Антонов С.П. Я читаю рассказ. – М.: Молодая гвардия, 1973. – С.139.
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.74-75.
5. Добин Е. Герой. Сюжет. Деталь. – М.-Л., 1962. – С. 408; Добин Е.С. Искусство детали: наблюдения и анализ [Текст] / Е.С. Добин. – JL: Сов. писатель, 1975. – С.192; Добин Е.С. Сюжет и действительность. Искусство етали [Текст] / Е.С. Добин. – Л.: Сов. писатель, 1981. – С.432.
6. Страхов И.В. Психология литературного творчества (Л.Н. Толстой как психолог) Текст – И.В. Страхов. –М.: ИП. – Воронеж: НПО МОДЭК, 1998. – С.384.
7. Шкловский В. О теории прозы. – Москва: Гос.изд.худ.литературы, 1929. – С.352.
8. Введение в литературоведение. Учебное пособие // Л.В. Чернец, В.Е. Хализев и др. // Под ред. Л.В. Чернец. – М.: Высшая шк., 2004. – С.287.
9. Норматов У. Ҳикояда детал ва тафсилот // Ўзбек адабиёти масалалари. –Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962. – Б.446; Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.74-75; Qayumov A., Gafurova D. O‘zbek nasrida shamol detalining badiiy-g‘oyaviy talqini. Monografiya. – Fargona, 2023. – B.113.
10. Норматов У. Ҳикояда детал ва тафсилот. Ўзбек адабиёти масалалари. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962. – Б.446.
11. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.74-75. <https://fayllar.org/izbek-adabiet-i-kafedrasining-11--jiilishi-baennomasidan.html?page=12>.
12. Ҳамдам У. Ота. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – Б.31,67
13. Цвейг С. Куйган кўнгили фарёди. – Тошкент: Янги аср авлоди. – Б.208, 237,230
14. Ҳамдам У. Исён ва итоат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б.292.
15. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.74-75.
16. Цвейг С. Аёл ҳаётидан йигирма тўрт соат.//Ёндиргувчи тилсимот. –Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.12,10,67, 44, 45, 46, 22, 36, 39, 35, 36, 37,
17. Лессинг Г.Э. Лаокон и в границах живописи и поэзии.– М.,1957. – С.121.
18. Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Ғ.Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б.262.
19. 20. Alijonovna, A. G. (2022). DISTINCTIVE FEATURES OF STORIES BY STEFAN ZWEIG. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 2, 88-94.
20. Alijonovna, A. G. (2022). PECULIARITIES OF STEFAN ZWEIG'S WORKS. Confrencea, 3(3), 91-94.
21. Alijonovna, A. G. (2022). INTERPRETATION OF THE IMAGE OF WOMEN IN S. ZWEIG'S SHORT STORIES" THE LETTER OF AN UNKNOWN WOMAN" AND" 24 HOURS OF A WOMAN'S LIFE". American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 3, 39-46.